ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24086340

Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari

Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi –
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent
E-mail: daminovamubina@inbox.ru
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-1122-2615

Annotatsiya. *Mazkur maqolada akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tibbiyot yo‘nalishi talabalarida kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, xalqaro ilmiy va kasbiy muhitda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish, sohaga oid autentik matnlar bilan ishlash, klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish hamda interaktiv ta’lim metodlarining samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *akademik mobillik, tibbiy ingliz tili, kasbiy kommunikativ kompetensiya, tibbiy terminologiya, kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim, xalqaro ta’lim, interaktiv metodlar, autentik matnlar.*

Особенности преподавания английского языка для медицинских целей в условиях академической мобильности

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности, содержание и педагогические возможности преподавания английского языка для медицинских целей в условиях академической мобильности. Особое внимание уделяется формированию профессиональной коммуникативной компетенции у студентов медицинских специальностей, развитию навыков эффективного общения в международной научной и профессиональной среде. Кроме того, анализируются вопросы усвоения медицинской терминологии, работы с аутентичными текстами по специальности, использования заданий, основанных на клинических ситуациях, а также эффективность интерактивных методов обучения.*

Ключевые слова: *академическая мобильность, медицинский английский язык, профессиональная коммуникативная компетенция, медицинская терминология, профессионально ориентированное обучение, международное образование, интерактивные методы, аутентичные тексты.*

Specific features of teaching english for medical purposes in the context of academic mobility

Annotation. *This article explores the specific features, content and pedagogical potential of teaching English for Medical Purposes in the context of academic mobility. Particular attention is paid to developing professional communicative competence among medical students and enhancing their ability to communicate effectively in international academic and professional environments. The article also analyses the acquisition of medical terminology, the use of authentic subject-specific texts, tasks based on clinical situations, and the effectiveness of interactive teaching methods.*

Keywords: *academic mobility, English for Medical Purposes (EMP), professional communicative competence, medical terminology, professionally oriented education, international education, interactive methods, authentic texts.*

KIRISH

Globallashuv va integratsiyaning faol jarayonlari bilan uzviy bog‘lanib ketgan zamonaviy jamiyat rivojlanishi tibbiy oliy ta’lim tizimiga ham ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Oliy ta’lim tizimida yetishib chiqayotgan mutaxassislar raqobatbardoshligi, keng qamrovli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, imkon darajasida xorijiy mutaxassislar bilan teng doirada tushunishiga intilish shu soha rivojidagi eng muhim omil hisoblanadi. 2022-yil 17-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash va sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6669-sonli Farmoni asosida sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Shulardan biri, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish tibbiyot sohasining rivojlanishiga va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yordam berishdir. Ushbu qarorning ijrosini ta’lim tizimida ta’minlashning dastlabki ko‘rinishi sifatida oldindan mavjud va boshqa nofilologik yo‘nalishlarda samarali natijaga erishgan Balogniya tizimini kiritish taklif etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akademik mobillik bir mamlakatdagi universitetlar o‘rtasida ham, turli mamlakatlardagi universitetlar o‘rtasida ham amalga oshiriladi, ammo stajirovkadan farqli o‘laroq, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxs to‘liq o‘qish kursini oladi va asosiy universitetga (u kirgan universitet) qaytib kelganida va u diplom olishni rejalashtirgan joyda), bu o‘quv kursi tugallangan semestr yoki yil sifatida hisoblanadi.

Akademik mobillik tashqi yoki ichki bo‘lishi mumkin.

1. Tashqi akademik mobillik - talabalarni tayyorlash, o‘qituvchilar va maishiy xodimlarning ilmiy tadqiqotlari va ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan xorijiy universitetlar va xorijdagi tadqiqot muassasalari.

2. Ichki akademik mobillik – talabalarni tayyorlash, universitet professor-o‘qituvchilari va xodimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va rahbarlik qilish uchun o‘sha hududdagi bir yo‘nalishdagi universitetlar va tadqiqot markazlari.

Tilshunos Z.N. Rashidovaning fikriga ko‘ra “Akademik mobillik nafaqat talabalar uchun, balki pedagoglarlar uchun ham muhimdir. Chet el universitetlariga o‘qishga ketish yoki stajirovkalarda qatnashish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, yangi o‘quv uslublarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlarni olib borish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida o‘quv jarayonini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi.” Bu fikr Barselona Universiteti tibbiyot fakulteti professori Maria Garcianing fikri bilan bog‘lanib ketadi. Akademik mobillik uning ishtirokchilarining ta’lim va kasbiy tajribasini shakllantirishga yordam beradi, chunki chet

ellik o‘qituvchi va professorlar bilan mashg‘ulotlar orqali talabalar boshqa ta’lim texnologiyalari haqida ma’lumot olishadi, shuningdek, boshqa mamlakatlar vakillari bilan bevosita muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Boshqa universitetlarining o‘quv dasturlari va o‘quv jarayonlari bilan tanishish, xalqaro standartlarga mos keladigan ta’lim olishga imkon beradi. Bundan tashqari, yangi texnologiyalar va usullarni o‘rganish imkoniyati ham mavjud.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidan andoza olgan holda sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish maqsadida barcha tibbiy oliy ta’lim muassasalarida akademik mobillikning asosiy bandlaridan biri hisoblangan qo‘shma ta’lim yo‘nalishlari o‘z faoliyatini olib bormoqda. Unga ko‘ra ushbu yo‘nalish talabalari oliy ta’limni yakuniy bosqichlarida o‘qishni davom ettirish maqsadida hamkor oliy ta’lim muassasalariga safarbar etilishi lozim. Bu talabalar oldiga bir vaqtni o‘zida ixtisosligi bo‘yicha yuqori bilim darajada ekanligini namoyish etish bilan birga, chet tillarida so‘zlasha olishi, kasbiy mahoratini dunyo miqyosida rivojlangan ekanligi ularning muvaffaqiyat kaliti ekanligini ko‘rsatish kabi masalalarni ham qo‘yadi. Aynan akademik mobillik (qo‘shma ta’lim) tibbiy oliy ta’lim muassasalarini jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirishning eng muhim yo‘nalishlari va usullaridan biridir.

Tilshunos M.A. Abduraxmonov aytganidek “Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik nafaqat tibbiyot ta’limi tizimini modernizatsiya qilishga, balki tibbiyot sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Chet ellik hamkasblar bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlarni olib borish va yangi texnologiyalarni qo‘llash o‘zbek tibbiyotini rivojlantirishga va uni global miqyosda tan olinishiga hissa qo‘shadi.”

Tibbiyot oliy ta’lim muassalarida akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o‘rganish kasbiy tayyorgarlikning tanlangan y o‘nalishi b o‘yicha sifatli ta’lim olish imkoniyatini berish, bo‘lajak mutaxassisga dunyoning yetakchi soha egalari bilan erkin fikr almashish imkoniyatini beradi. Bu borada ingliz tili fani o‘qituvchisining oldida turgan asosiy vazifalaridan biri bu tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy mavzularda nutq so‘zlay olishga, bemorlar bilan erkin muloqatga kirishishga va sohaga oid adabiyotlarni o‘qishga o‘rgatishdir. Tibbiyot ta’limi bo‘yicha mutaxassis I.A. Ismoilov “Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va akademik mobillikni rivojlantirish o‘zbek tibbiyot mutaxassislarining malakasini oshirish va ularning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlashga yordam beradi. Chet el universitetlariga o‘qishga ketish, stajirovkalarda qatnashish, ilmiy konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish o‘zbek tibbiyot mutaxassislarining xalqaro miqyosdagi tajriba va bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.” deydi. Mehnat bozorida o‘zgargan tanlov mezonlari “Tibbiyotda ingliz tili” fanini o‘qitish mazmuni, jarayonida qo‘llaniladigan shakllar, usullar va texnologiyalarga qo‘yilgan talabni yangilash kerakligi isbotlandi. D. Sherbinaning “Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tili o‘qitishning pedagogik shartlari” mavzusi bo‘yicha dissertatsiya tadqiqotida yaqin vaqtgacha nolingvistik oliy ta’lim muasasalarida ingliz tili darslarida hali hanuz gramatika, tarjima usullari ustunlik qilayotgani, bu holat esa bitiruvchi mutaxassislarni yetarlicha kommunikativ kompitensiyaga ega bo‘lmasligini ta’kidlagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda tibbiyot sohasidagi olib borilayotgan izlanish va yangiliklardan kelib chiqib, aksincha ingliz tili darslarini yuqori malakada tashkillashtirish, barcha til aspektlarini qamragan dars jarayonlarini tashkil etishni talab etadi. Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tili ham ta’limiy ham kasbiy maqsadlarga erishishdagi asosiy manba bo‘lishi bilan bir qatorda ingliz tili millatlararo aloqa vositasi sifatida ham e’tirof etiladi. Ingliz tilini bilish xorijiy manbalardan yangi tibbiy ma’lumotlarni olish, yetuk xorijiy davlat mutaxassislari bilan fikr almashinish, kasbiy darajani oshirish, sohaviy yangi aloqalar

o‘rnatib, ularni mustahkamlashga imkon beradi. Jahon mehnat migratsiyasi va kadrlarni ish bilan ta’minlash sharoitida chet tillarini bilish zamonaviy mehnat bozorida muhim raqobat ustunligiga aylandi. Globallashuv natijasida turli davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va kasbiy aloqalar kengayib, ishchi kuchining xalqaro harakatchanligi ortmoqda. Shu sababli xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar nafaqat o‘z mamlakatida, balki xalqaro mehnat bozorida ham ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda.

Til bilish, avvalo, xorijiy ish beruvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Mehnat migrantlari uchun mahalliy tilni bilish ish sharoitlari, mehnat huquqlari, ish beruvchining talablari va kundalik hayotga moslashishni osonlashtiradi. Tilni yaxshi bilmaslik esa ishga joylashishda, kasbiy vazifalarni bajarishda va huquqiy masalalarni tushunishda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, til bilish kadrlarning kasbiy malakasini oshirish uchun ham muhimdir. Bugungi kunda ko‘plab ilmiy maqolalar, texnik qo‘llanmalar, onlayn kurslar va zamonaviy kasbiy resurslar ingliz tilida taqdim etiladi. Bir yoki bir nechta xorijiy tilni biladigan mutaxassis yangi bilim va texnologiyalarni tezroq o‘zlashtirishi, xalqaro tajribadan foydalanishi hamda o‘z kasbiy salohiyatini rivojlantirishi mumkin. Globallashuv sharoitida ayniqsa ingliz tili xalqaro biznes, fan, axborot texnologiyalari, turizm, diplomatiya va ta’lim sohalarida muhim kommunikatsiya vositasiga aylangan. Shu bilan birga, ma’lum bir davlat yoki mintaqada mehnat qiluvchi migrant uchun o‘sha hududning tilini bilish yanada amaliy ahamiyatga ega. Demak, til bilish nafaqat muloqot vositasi, balki insonning mehnat bozoridagi qiymatini oshiruvchi kapital sifatida ham qaralishi mumkin.

Global mehnat bozorida kundan-kunga oshib borayotgan ta’lab va takliflar, mehnat migratsiyasi va kadrlarni ish bilan ta’minlash sharoitida xorijiy tillarni bilish insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Til bilish insonga raqobatbardosh bo’lish, ish topish, ijtimoiy integratsiyalanish, turli jabhalardagi ma’lumotlarga ega bo’lish, xalqaro hamkorlik qilish, madaniyatlar o’rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va global sohaviy muammolarni o’rganish davomida ularga tez yechim toppish imkonini beradi. Shuningdek, til bilish tibbiyot sohasida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham muhim ta’sir ko’rsatadi. Tilni bilish milliy tibbiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro toifadagi tibbiy salohiyatni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro maydondagi obro’sini mustahkamlashga yordam beradi.

V.Sherba, I.L.Bim, N.I.Gez, Ye.I.Pasov va boshqa ingliz tilshunos olimlari nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rganish sohaviy tarbiyani oshirish, shaxsni bir butun individual xususiyat bilan shakllantirish imkonini berishi haqida ta’kidlagan. I.A.Zimnayaning yoritishicha akademik mobillik sharoitida sohaviy bog‘liqlik bilan ingliz tilini o‘rganish, insonning o‘z sohasidagi “men”nini anglatadi. Tadqiqotchilar Ye.I.Pasov, R.P.Milrud, Ye.N.Solovova nofilologik yo‘nalishlarda akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o‘rganish, sohaviy nutq bu - fikrlashni rivojlantirish vositasi deb qaraydi. Boshqa bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘rganish nafaqat sohaviy ma’lumot olishda xizmat qiladi, balki kasbiy faoliyatni yangilash maqsadida malaka oshirish yoki akademik mobillik doirasida boshqa shu sohaning yetakchi davlatlaridan birida o‘qish imkoniyatini yaratadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib akademik mobillik sharoitida tibbiyot sohasida ingliz tilini o‘rgatish, talabalarga kommunikativ kompitensiyani shakllantirish, umumiy kasbiy sohada o‘quv jarayoni subyektlarini rivojlantirivchi asosiy omillardan biri degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu yo‘nalishda akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o‘rgatish bir necha muammoni qamrab oladi va ushbu muammolar V.I.Baydenko, M.A.Kasevich, R.V.Stavruk, V.B.Svetlov, A.V.Petrov, A.N.Sheremet, A.V.Tsyb va boshqalar tomonidan o‘rganib chiqilgan. Dastlabki holatda akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadda ingliz tilini o‘qitish shartli ravishda talabalardan tinglash, boshqalarni fikrini jamlash, mustaqil qo‘shimcha tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratish

kabi bir nechta holatni qabul qilishini ta’lab etadi. N.Sheremetning fikriga ko‘ra akademik mobillik davrida ingliz tilini tibbiy maqdassa o‘rgatishning o‘ziga xosligi bu talabalarning sohaviy aloqa tez o‘rnatish va yangi axborot muhitiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Akademik mobillik amalga oshirilgan muhitda 2ta va undan ko‘p xalqaro oliy ta’lim muassasalari ishtirok etganligi sababli, bizning fikrimizcha ingliz tilini tibbiy maqsadda o‘rgatish pedagogning oldiga bir necha talablarni qo‘yadi. Akademik mobillik sharoitida tibbiyot oliy ta’lim muassasasi pedagoglari ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy talablarni o‘rganish, muassasalar uchun ta’lim standartlarini bir-biriga moslash va asosiysi kelajakda talabalarning shaxsiy mutaxassislik doirasidagi talablarni tushuna bilishi lozim. Hozirda turli kasbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish doirasida O‘zbekistonda EMI, CLIL, EnSPIRe-U va Uz TESPING kabi turli ta’lim dasturlari amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarning akademik mobilligining asosiy maqsadi bo‘lajak shifokorga jahonning rivojlangan ilmiy va o‘quv muassasalarida kasbiy tayyorgarlikning tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha sifatli o‘rganish imkoniyatini berish bilan birgalikda jahon mehnat bozoriga raqobatbardoshlikka dosh beruvchi kadr sifatida kirish imkoniyatini berishdir. Akademik mobillikda ishtirok etayotga tibbiyot oliy ta’lim muassasalari ingliz tilini o‘rganish nafaqat tibbiy ta’lim uchun, balki tibbiyot sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning shaxsiyati uchun ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi, chunki akademik mobillikni amalga oshirish doirasida talaba turli tibbiy-ijtimoiy, ta’lim, tadqiqot va kasbiy muammolarni boshqa bir muhitda ham hal qilish zarurati bilan duch keladi. Bu jarayonda ingliz tilida mukammal sohaviy muloqot qilgan holda yechim topish kelajakdagi shifokorda odamlarning sog‘lig‘i va hayotini saqlash bo‘yicha kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Akademik mobillik sharoitida e’tibor beriladigan sohadan tashqari holat bilan o‘zaro ta’sir qilish usullarini topish, baholash, tanlash qobiliyati; o‘zini namoyon qilish va madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyati; tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish va javob berish; ko‘p madaniyatli aspektda aks ettirish qobiliyatlarida ingliz tilini bilish katta ro‘l o‘ynaydi.

XULOSA

Yuqoridagilarning barchasini hisobga olgan holda, biz akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tili o‘qitishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- qiziqish - kognitiv extiyojning namoyon bo‘lish shakli sifatida, kelajakdagi shifokorning shaxsiyati, o‘z faoliyatining maqsadlarini tushunishga yo‘naltirilganligini ta’minlash, akademik mobillik sharoitida atrofdagi yangiliklar bilan tanishishga va ingliz tilidagi voqelikni to‘liqroq aks ettirishga yordam beradi;
- faoliyat - talabaning ingliz dunyosiga faol munosabatini amalga oshirishda shaxsiy salohiyatning manbai va harakatlantiruvchi kuchi sifatida;
- mustaqillik - faoliyat maqsadlarini belgilash va ularga mustaqil ravishda erishish qobiliyatida ifodalangan shaxsiy xususiyat sifatida;
- moslashuvchanlik - tibbiyot talabasining ingliz til muhitining o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish qobiliyati sifatida;
- faoliyatga tayyorlik - faoliyatni amalga oshirish uchun ma’lum bir vaqtda y o‘naltirilgan shaxs kuchlarining kontsentratsiyasi sifatida;
- muloqot - bir tomondan, shaxsan muhim sifat sifatida, ikkinchi tomondan, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish uchun boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati;
- ijodkorlik - tibbiyot talabasi shaxsining faoliyat maqsadiga erishish uchun yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati sifatida;

- aks ettirish - kelajakdagi shifokorning o‘z faoliyatini o‘z- o‘zini tahlil qilish qobiliyati sifatida.

Akademik mobillikk sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitish uchun qiymat matritsasi mexanizmlarning izchilligi qidirish - baholash - tanlash - proeksiyalash, shaxsning ta’lim, ilmiy va kasbiy qadriyatlarga ko‘tarilishini ta’minlash kabi holatda ifolanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gorelik P. L. Annotations to medicines in English and Russian: a comparative study // Bulletin of the Academy encyclopedic sciences. 2014. No. 3. S. 55-59.
2. Gorelik P. L. Linguistic and Cultural Peculiarities of Translation medical prescriptions from English into Russian // Bulletin of the Academy encyclopedic sciences. 2014. No. 3. S. 60-63. 3601
3. Valeeva N.G. “Introduction to Translation Studies” - Moscow: RUDN University Publishing House, 2006.
4. Edition of the European Pharmacopoeia in Russian. t. 1. M .: OOO "Remedium", 2011.1816 p.
5. Korzhavykh E. A., Moshkova L. V. Characteristics of research in the field of pharmaceutical terminology // Bulletin of RUDN. Ser. Medicine. Specialty "Paramedical". 2004. No. 4. S. 80-90.
6. Oxford Dictionary of English Language, OUP, 2008